

ALISHER NAOIY ASARLARIDA OT VA SIFAT SO'Z TURKUMINING
QO'LLANISHI ("MAJOLIS UN-NAFOIS" ASARI MISOLIDA)

Ravshanova Tursuntosh

Karomatova Parvina

TerDU talabalari

Annotatsiya: Mazkur maqolada Alisher Navoiy asarlarining morfologik tahlili amalga oshiriladi. Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" asaridagi ot va sifat so'z turkumlari tahlili beriladi. Mazkur tahlillar ot so'z turkumiga kiruvchi so'zlarning Grammatik kategoriyalari va sifat so'z turkumidagi so'zlarning yasalishi va qo'llanilishi kabi holatlarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, "Majolis un-nafois", morfologiya, ot so'z turkumi, sifat so'z turkumi, kategoriya, ko'plik, sifat darajalari

Hazrat Mir Alisher Navoiy ijodi davomida ham badiiy, ham ilmiy, ham tilshunoslik va adabiyotshunoslikka oid asarlar yaratib, o'zbek tilining badiiy va lisoniy imkoniyatlarining naqadar keng ekanligini isbotlab berdi. Navoiy ijodi fonetik, morfologik jihatdan ko'p martalab tadqiqot obekti bo'lib kelgan. Shuning uchun Alisher Navoiy ijodining yorqin durdonalaridan biri bo'lgan "Majolis un-nafois" asarini morfologik jihatdan o'rganishni maqsad qilib oldik. Va asarda qo'llanilgan ot hamda sifat so'z turkumlariga xos so'zlarning tahlillarini keltirib o'tdik. Navoiy qo'llagan lisoniy birliklar bugungi kunda ham ona tilimizning leksik birliklari hisoblanadi. Garchi u birliklar hozirgi kunda ba'zi farqlarga ega bo'lsada, ayrim sinonimik birliklar iste'moldan chiqqan bo'lsa ham, ularning semantik imkoniyatlari tilimizning faol nutqiy figuralari sifatida yashab kelmoqda. Morfologiya grammatikaning bir qismi bo'lib, so'zning Grammatik turkumlari va morfologik kategoriyalarini, so'zning formalar sistemasi va shu formaning hosil bo'lish yo'llari hamda hosil qiluvchi vositalarni o'rganadi. Demak, morfologiya so'zni grammatik birlik sifatida tekshiradi. Navoiyning "Majolis un-nafois" asarining morfologiyasini esa quyidagi yo'sinda talqin qilish mumkin. Bu asar tilidagi so'zlarni ham hozirgi o'zbek tilidagidek, mustaqil, yordamchi va alohida olingan so'zlar kabi guruhlarga bo'lish mumkin. Mustaqil so'z turkumlari ham o'z navbatida hozirgi o'zbek tilidagi singari ot, sidat, son, olmosh, ravish va fe'lga bo'linadi. Biz shular orasidan tahlil uchun ot va sifat so'z turkumlarini tanlab oldik. Otlar ma'no jihatidan turlicha klassifikatsiya qilinadi. "Majolis un-nafois" dagi ot so'z turkumiga kiruvchi so'zlar quyidagi Grammatik kategoriyalarni o'z ichiga oladi: a) atoqlik va turdoshlilik; b) ko'plik; c) kelishik.

Atoqli otlar bilan turdosh otlar o'rtasidagi Grammatik farqlar shundan iboratki, atoqli otlar doim muayyan holatdagi ot kabi ishllatiadi (Xoja Abdulvafoyi Xorazmiy, Mavlono Husayn Xorazmiy, Xoja Albulvafo Shayz Ozariy), turdosh otlar esa ham muayyan ham mavhum holatlarda bo'ladi. Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" asari tilida ko'plik qo'shimchasi, asosan, hozirgi o'zbek adabiy tilidagidek -lar qo'shimchasi bilan ifodalanadi.

Ittifoqo manzil alarning xonoqohi eshikida voqe' erdi, tong otqonda, andoqkim, o'yuni aftol da'bi bo'lur, ul jamoatning atfoli ul xonaqohg'a o'ynag'ali kirdilar (15). -lar qo'shimchasining qo'llanish doirasi keng bo'lib, u turkiy so'zlargagina emas, o'zlashtirilgan so'zlarga ham qo'shilib keadi.

Masalan ; a) arab sozlariga:

Dedilarkim: bu jamoat atfolidin biz tilaganda, sen kelib biz bila oshno bo'ldung, sening uchun fotiha o'quli deb o'z fohalarig'a musharraf qildilar(15).

b) fors-tojik so'zlariga :

Mir Yodgorbek - "Sayfiy" taxallus qilur erdi. Xurosonning asil va mutayyin mirzodalaridindur (17).

Bundan tashqari asar tilida ko'plikning arabcha shakllari ham mavjud. Hozirgi zaon o'zbek tilida arabcha ko'plik shaklidagi so'zlarning ba'zilariga , ko'proq -ot qo'shomichasiga ega bo'lganlari jamlik ma'nosiga egadir: Bu nav' sifoti ko'pdurki, agar desa so'z uzolur. (36). Arab tilida ichki fleksiya bilan ko'plik hosil qilingan. Masalan: sulto-salotin, vasf-avsof, vaqt-avqot kabi.

Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" asari tilidagi egalik kategoriyalari asosan hozirgi zamon o'zbek tilidagidan farq qilmaydi. Asarda birinchi shaxs birlik egalik qo'shimchasi -m, -im, -um, -ym

Badaxshon shohig'akim, anga murid bo'lub erdi, "Fusus" dars aytur erdi, ko'pglummi base sayd qildi(18),

ikkinchi shaxs birlik qo'shimchasi -ng, -ing, -ung shaklida

Necha yig'lay sha'mdek hajringda, yorim, kechalar,

Ohkim kuydirdi dog'i intizorim kechalar (25) uchinchi shaxs birlik qo'shimchasi esa -i, -si tarzida

Hayf va yuz hayf va darig va yuz ming darig'kim, hayot chashmasidin serob bo'lmadi va umri naxli mevasidin bar yemadi (35) qo'llangan.

Asarda qo'llangan so'zlar tarkibidagi kelishik qo'shimchalarida ham deyarli o'zgarishlar kuzatilmaydi. Chiqish kelishigi -din, -tin shakllarida ifodalangan. Masalan: mulkidin, kamolotin kabi.

Mazkur asar tilidagi sifatlarni ham xuddi hozirgi turkiy tildagi kabi asliy va nisbiy sifatlarga bo'lish mumkin. Asliy sifatlarga oq, ko'k, ulug', kichik, shirin, achiq kabilarni misol tarzida keltiradigan bo'lsak, nisbiy sifatlar sirasiga burnog'i(burungi), ilg'i(yilgi) , chohdag'i, kuchluk, yoshlig'(yoshli), gulgun , parivashlarni misol tarzida bemalol keltira olamiz. Bundan tashqari sifatlarning darajalanishida ham ba'zi o'zgarishlarni payqash mumkin. Hozirgi qiyosiy darajadagi -roq qo'shimchasi "Majolis un-nafois" asari tilida -raq va -rak tarzida ifodalangan. Mavloni Fasihiddin - Mavloni Nizomiddin Hiravin ahfodidindurkim, alarni Nizomiylar deklarkim , Xurosonda mundin sharifroq nasab yo'qtur (75). Ana shundan o'zgarishlardan yana biri sifatning orttirma darajasini yasash jarayonida kuzatiladi. Asar tilida sifatning orttirma darajasini yasash uchun eng so'zidan foydalanilmagan balki sifatni chiqish kelishigi va bosh kelishik shakllarida takrorlash yo'li bilan yasaladi.

Hozirgi zamon o'zbek tilida sifat kesim bo'lib kelganda III shaxsda ko'proq bog'lamasiz ishlatiladi. "Majolis un-nafois" tilida aksincha bog'lama -dur(ur), -tur(ur) bilan ko'p ishlatiladi:

Har necha alarning rutbasi shoirliq poyasidin yuqoriroqdur(3).

-(u)q, -(u)k qo'shimchasi: bu qo'shimcha fe'ldan sifat yasaydi: Mavlono Yoriy- astrobotlig'dur. Tab'ida xili sho'xluq bor (59) .

-iy qo'shimchasi: Bu qo'shimcha sifatdan tashqari ot ham yasaydi:

Mavlono Fidoiy - ham astrobotlig'dur va sayidzodadurkim, zohiriy safosi bor(60).

-nok qo'shimchasi: bu qo'shimcha egalik ma'nosiga ega bo'lib, otdan sifat yasaydi : Mavlono Nosiruddin - Ahmad Hojibek mulozomidir. Otasi donishmand va muttaqi va valoyat sholir kishi ermish. Ammol o'zi sipohiyliqqa havasnok va takallufotqa rog'ib kishidir(84).

Demak , Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" asari tilidagi sifat hozirgi zamon adabiy tilidagi sifatdan quyidagilar bilan farq qilar ekan:

1. Sifat turkumiga oid turkiy qo'shimchalar "Majolis un-nafois" tilida fonetik variantlariga ega va hozirgi qo'shimchalardan fonetik jihatdan farq qiladi.
2. "Majolis un-nafois" asari tilida ba'zi o'zlashtirilgan qo'shimchalar va tojikcha hozirgi zamon fe'l o'zagi bilan sifat yasash usuli mahsuldor.
3. Hozirgi sifatning orttirma darajasini yasovchi eng so'zi Navoiy asarlari tilida uchramaydi.

Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak , Navoiy asarlarining mavzu ko'lami juda keng. Uning asarlarini hoh adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan , hoh tilshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilmaylik adog'iga yetib bo'lmadi. Shu sababli ham ushbu asarlar ustida olib boriladigan tahlillar bardavom va bir-birini takrorlamay bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdurahmonov G', Shukurov Sh. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi. Toshkent: "O'qituvchi" 2008.
2. Abdurahmonov G'. Tarixiy sintaksis/ O'zbek tilining tarixiy grammatikasi kursi bo'yicha materiallar. Toshkent 1974.
3. Abdurahmov G' , Rustamov A . Navoiy tilining Grammatik xususiyatlari. Toshkent 1984
4. Alisher Navolily. Tanlangan asarlar. 20 tomlikl. XIV om. Toshkent 2006
5. Bafoyev B. Navoiy asarlari leksikasi. Toshkent 1983
6. Matg'oziyev A. XIX asr o'zbek tilining morfologiyasi. Toshkent 1977
7. Sodiqova M.S. Hozirgi o'zbek tilida sifat. Toshkent 1974
8. Alisher Navoiy asarlarining izohli lug'ati. E. I. Fozilov tahriri ostida. I tom Toshkent 1983 -656 S. II tom. Toshkent 1983 -642 s; III tom. Toshkent 1984 -622 s. IV tom. 1985 -634 s.